

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT**  
**UNIVERSITETI**

**MUSTAFAYEVA NODIRA ABDUJALILOVNA**

**SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA LISONIY**  
**IMKONIYATLARNING SOTSIAL XOSLANISHI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in  
philological sciences**

**Mustafayeva Nodira Abdujalilovna**

Sharof Boshbekov dramalarida lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishi..... 3

**Мустафаева Нодира Абдужалиловна**

Социализация языковых возможностей в драмах Шарофа Бошбекова ..... 21

**Mustafayeva Nodira Abdujalilovna**

The social functioning of linguistic possibilities in the dramas by  
Sharof Boshbekov..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT**  
**UNIVERSITETI**

**MUSTAFAYEVA NODIRA ABDUJALILOVNA**

**SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA LISONIY**  
**IMKONIYATLARNING SOTSIAL XOSLANISHI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.I.PhD/Fil3056 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda Andijon davlat universiteti veb-sahifasi (www.adu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xolmurodova Mehrinisa Ibroximovna**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna**

filologiya fanlari doktori, professor

**Yusubova Rano Norboyevna**

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.fil. 60.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu\_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.Sh.Sobirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

**F.F.Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., dotsent

**D.A.Nurmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida amaliy tilshunoslikning turli sohalari shiddat bilan rivojlanib borishi asar matnini to‘laonli tushunish, uni milliy o‘ziga xoslik ifodasi sifatida talqin etish sotsiopragmatikaga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Dramatik asar matnida nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvini sotsiopragmatik aspektda o‘rganish, lisoniy, nutqiy imkoniyatlarning sotsial-xoslanishini tahlil etish tilda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tilshunoslikda ijodkorlarning tildan foydalanish mahoratini maxsus o‘rganish o‘sha xalq tilining yaxlit jozibasini, milliy-ma’naviy qadriyatini ko‘rsatadi.

Dunyo tilshunosligida nutqiy muloqotning sotsiopragmatik tamoyillarini badiiy matn tahlili asosida anglashga nafaqat tilshunoslar yoki faylasuflar, balki, ijtimoiy soha mutaxassislari, adabiyotshunoslar, psixologlar hamda ham murojaat qilishayotganligi sotsiopragmatikaning serqirra va zarur ekanligini isbotlaydi. Tilshunoslik sohasida lisoniy imkoniyatlarning amaliy voqelanishini – uning nutq, jamiyat, madaniyat, milliy tafakkur, hatto sun’iy intellekt bilan uzviy aloqadorligini belgilovchi yo‘nalishlarning allaqachon shakllanib bo‘lganligi fanlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda “Davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish vazifasining”<sup>1</sup> belgilanishi o‘zbek tilining internet, ijtimoiy tarmoqlar tizimidan mustahkam o‘rin olishiga ko‘maklashish bilan bog‘liq izlanishlar olib borish muhimligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, “...davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash”<sup>2</sup> bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifadir. Shu boisdan hozir tilshunoslik fanida dramatik asarlar til tadqiqi masalalarining kognitiv, sotsiopragmatik, lingvistik qo‘llanish me’yorini belgilovchi semantik, matniy xususiyatini tahlil qilish zarurati paydo bo‘ldi. Shu ma’noda personaj nutqining turli stilistik xususiyatlari, so‘zning ma’no nozikliklari va xalq tilining ta’sirchan xususiyatlari, dramaturgning so‘z qo‘llash hamda paremiologik birliklardan foydalanish mahorati, ushbu birliklarning nutqiy jozibadorligi va tasviriylikni kuchaytirishdagi ahamiyati, lug‘aviy birliklarning o‘ziga xos leksik-semantik va stilistik xususiyatlarini zamonaviy paradigmalarda asosida ochib berish ham muhim vazifalardan hisoblanadi<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni //https://lex.uz/docs/45611730

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni. URL: https://lex.uz/docs/-5058351.

<sup>3</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B.71.; Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol.fan.dokt. ...diss. – Toshkent, 2011. – B. 94.; Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. 5-е издание. – Назрань: Пилигрим, 2010. – 488 с.

2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son”O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida badiiy matnning lingvistik tahlili, xususan, unga pragmatik va sotsiopragmatik yondashuvlar sezilarli darajada rivojlandi. O‘zbek tilshunosligida ham pragmalingsvistika, sotsiolingsvistika kognitiv tilshunoslik kabi bir qator zamonaviy sohalar yuzaga keladi. Lisoniy hodisalar, matn va uning ta’siri, nutqiy aktlar, adresant va adresat, nutqiy vaziyatlar kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati, uning muloqot madaniyatiga ta’siri tilshunoslar tomonidan turli kontekstlarga asosan, badiiy-publitsistik, dramatik asarlar misolida o‘rganilgan<sup>4</sup>, lisoniy hodisalar lingvostilistik<sup>5</sup>, sotsiolingsvistik<sup>6</sup> nuqtai nazardan atroflicha tadqiq etilgan. Mutaxassislar tomonidan sistem tilshunoslikda gap qoliplarini belgilashning turli usullari qayd etib kelinayotganligi ma’lum. Xususan, tilshunos D.Lutfullayeva o‘z tadqiqotida mazkur masalaga maxsus to‘xtalib o‘tadi va gap qurilish qoliplarining voqelanish masalasini tekshirish nutqiy hosilaning bevosita kuzatishda ko‘zga tashlanmaydigan ichki tabiatini aniqlashga imkon berishini o‘rinli ta’kidlaydi<sup>7</sup>. Tilshunos olim bu o‘rinda nazarda tutgan hodisalaridan biri bu, shubhasiz, badiiy asarlar tilining sotsiopragmatik talqini masalasiga ham aloqadordir.

---

<sup>4</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 008. – Б.71.; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 94. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. 5-е издание Назрань: Пилигрим, 2010. – 488 с.

<sup>5</sup> Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” достонининг тили ва стили: Филол.фан.докт....дисс. – Т., 1949; Мамадов Х. Лексикостилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1969.; Шомақсудов А. Муқимий сатираларининг тили. – Т., 1970.; Қўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик новаторлиги: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 1975.; Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1979.; Абдиев Э. Язык и стиль драм Камила Яшина: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1982.; Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби (лексика ва фразеология): Филол. фан. ном. ...дисс. Автореф. – Самарқанд, 2001.; Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2004.; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маънавий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 2000.; Қўчқорова М. Абдулла Қаҳҳор адабий-танқидий публицистикасининг мавзувий таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – №2. – Б. 52-55.

<sup>6</sup> Мирзаев И. К проблем лингвопоэтической интерперетации стихотворного текста: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Т., 1991.; Махмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. – №4; Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 2000.

<sup>7</sup> Lutfullaeva D. Gapping semantik-sintaktik qurilish qolipi va propositiv strukturasi o‘rtasidagi munosabat (o‘zbek tilidagi yo‘qlik-mavjudlik belgilari asosida zidlanuvchi gaplar misolida): Filol.fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 2006. – B. 7.

Dramatik asarlar tilining xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda H.H.Niyoziy<sup>8</sup>, H.Olimjon<sup>9</sup>, K.Yashin<sup>10</sup> asarlari til xususiyatlari, shuningdek, N.Safarov, Uyg‘un dramalari tili haqidagi fikr-mulohazalar mavjud. Masalan, I.Qo‘chqortoyev, A.Qahhorning iboralaridan foydalanish mahoratini ilmiy tadqiq etar ekan, dramatik asarlar tilida iboralarning qo‘llanish xususiyatlariga e‘tibor qaratgan<sup>11</sup>.

G.Ikromova dramaturg Sharof Boshbekov dramalarining lisoniy tadqiqini o‘z tadqiqotlarida olib borgan bo‘lsa<sup>12</sup>, B.Xolmatova o‘z tadqiqotlarida “pragmatika” tushunchalariga, “pragmatik termin”, “pragmatik ma’no”, “pragmatik axborot”, “pragmatik vazifa” kabi birikmalarni izohlaydi<sup>13</sup>. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini masalasini tahlil etgan M. Hakimov nutqiy aktda umumiy holda so‘zlovchi, tinglovchi, nutq obyekti – faktik materiallar hamda nutqiy vaziyat komponentlari ishtirok etishini qayd etadi<sup>14</sup>. M.Qurbonova bolalarga xos nutqiy aktning amal qilishi uchun zarur bo‘lgan komponentlar borasida tadqiqotlar olib borgan<sup>15</sup>. Tadqiqotchi M.Xolmurodova E.A‘zam kinoqissalarining tilini sotsiopragmatik aspektda tahlil qilib, tilning ijtimoiy ixtisoslashuvi, uni ifoda qiluvchi leksik-grammatik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlarini alohida ilmiy asosda ko‘rib chiqqan<sup>16</sup>. Ammo dramaturg Sharof Boshbekov asarlari tilining o‘ziga xosligi, ijtimoiylashuv hodisasi, drama tili va uning pragmatik, sotsiopragmatik aspektlari, tasvir va ta’sir munosabatlaridagi uyg‘unlikni ta’minlashdagi o‘rni masalasi alohida tadqiq obyektiga aylanmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” mavzusiga asosan bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Sharof Boshbekov dramatik asarlari matnidagi lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishini hamda nutqiy vaziyatga ijtimoiy muhitning ta’sirini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jahon va o‘zbek tilshunosligida dramatik asarlarning sosiopragmatik o‘rganilishini tahlil qilish, tadqiqot aspektiga ko‘ra baho berish;

dramatik asar tilining pragmatik xususiyatlarini aniqlash;

Sharof Boshbekov asarlari tilining lingvostilistik xususiyatlarini tahlil qilish;

Sharof Boshbekov dramatik asarlari tilining pragmatik va sotsial xoslanishi xususiyatlarini aniqlash;

<sup>8</sup> Kazakov Sh. Semantiko-stilisticheskie osobennosti emotsionalno-otsenочноy leksiki dram Xамзы: Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. – Tashkent, 1990.

<sup>9</sup> Babaeva S. Leksiko-stilisticheskie osobennosti poezii Xamida Alimdjana: AKD. – Tashkent, 1990.

<sup>10</sup> Abdiev E. Yazyk i stil dram K. Yashina: AKD. – Tashkent, 1981.

<sup>11</sup> Kuchkortoev I. Frazelogicheskoe novatorstvo A. Kaxxara: AKD. – Tashkent, 1965.

<sup>12</sup> Ikromova G. Sharof Boshbekov dramalarining lisoniy tadqiqi: Filol.fan.bo‘yicha fals. dokt. ...diss. avtoref. – Jizzax, 2023.

<sup>13</sup> Xolmatova B. Pragmatika tushunchasining talqini haqida // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2019. – B. 45-49.

<sup>14</sup> Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dok. ...diss. – Toshkent, 2011. – B. 94.

<sup>15</sup> Qurbonova M. Bolalarga xos nutqiy akt turlarining pragmalingvistik tahlili // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2016. – № 4. – B. 96-97.

<sup>16</sup> Xolmurodova M. Erkin A‘zam kinoqissalari tilining sotsiopragmatik aspekti: Filol. fan. b. fals. dok. ...diss. – Andijon, 2021. – 134 b.

drama tilining sotsial va grammatik jihatdan ijtimoiy ixtisoslashuvi sabablarini tahlil qilish;

dramatik asarlarda o‘zaro muloqotning tushunarli va ta’sirli bo‘lishini ta’minlovchi verbal va noverbal vositalarning qo‘llanilish nisbatini ochib berish;

Sharof Boshbekov dramalarida grammatik ma’noning nutqiy voqelanishi, grammatik vositalarning sotsiopragmatik munosabatni yuzaga chiqarishdagi ishtirokini o‘rganish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida dramaturg Sharof Boshbekovning “Temir xotin”, “Taqdir eshigi”, “Falakning gardishi” nomli asarlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** yozuvchi-dramaturg dramalari tilida grammatik ma’noning nutqiy voqelanish imkoniyatlari, grammatik vositalarning sotsial xoslanishini, munosabatini yuzaga chiqarishdagi o‘rni, tilning ijtimoiy va sotsial xoslanishidagi lisoniy vosita va imkoniyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, suhbat, kontekstual, distributiv, struktural va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ot va otlashgan so‘zlarda son kategoriyasi, jumladan, ko‘plik shakli nutqiy vaziyatlarda undov va modal so‘zlar kabi o‘z grammatik ma’nosidan tashqari ijobiy va salbiy baho munosabatlarini ifodalashga xizmat qilishi dramalar tili misolida ochib berilgan;

Sharof Boshbekov dramalarida lisoniy vositalarning badiiy matnlardagi yashirin pragmatik imkoniyatlari, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqotga nutqiy vaziyat, nutqiy sharoitning ta’siri kabi ekstralingvistik omillar aniqlangan;

dramalarda grammatik ma’noning nutqiy voqelanishida lisoniy vositalarning qahramon ruhiy holati, voqelikka munosabati, nutqiy vaziyat, zamon va makon ta’sirida so‘zlovchining o‘z ichki munosabatlarini ifodalovchi morfologik va sintaktik vositalar aniqlangan;

Sharof Boshbekov asarlarida sodda gaplar, kiritmalardan, zarur o‘rinlarda sheva elementlaridan unumli foydalanish o‘zaro muloqotning samaradorligini ta’minlashi, so‘zlar, umuman, matn tili ijtimoiy jihatdan dramalar matniga moslashishi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

til lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini ta’minlashda dramatik matnning sotsial xoslanishiga doir diskursiv asoslari shakllantirilgan;

nutq vaziyatining lingvistik xususiyatlaridagi o‘zgarishlar, so‘z tarkibining dramalar matni bilan aloqador uslubiy-ekspressiv hodisalari ochib berilgan;

dramalarda uchraydigan modal ma’noni ifodalovchi so‘zlarning pragmatik munosabatlari aniqlangan;

asar matnida yuklamalarning har biri alohida lisoniy imkoniyat, pragmatik munosabatni yuzaga chiqaruvchi qulay vosita ekanligi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, keltirilgan tahlillar, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning zamonaviy tilshunoslikning pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik va sotsiopragmatikaga kabi sohalariga oid izlanishlarda, shuningdek,

tilshunoslikning lekiskologiya, grammatika, stilistika bo'limlarida, shuningdek sotsiologiya, adabiyotshunoslikka doir ilmiy tadqiqotlar uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qila olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Sharof Boshbekov dramalari tili misolida amalga oshirilgan sotsiopragmatik, sotsial xoslanishiga oid tahlillardan, oliy o'quv yurtlarining filologiya, san'atshunoslik fakultetlarida "Matn tahlili", "Badiiy adar tahlili", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Adabiyotshunoslikka kirish", "Tahliliy o'qish", "Sahnalashtirish" kabi fanlarda shu bilan birga, magistratura ixtisosliklarida "Sotsiolingvistika", "Kognitiv tilshunoslik", "Sotsiopragmatika" kabi fanlardan ma'ruza matnlari tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sharof Boshbekov dramalarida lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalar asosida:

turli loyihalarni bajarishda ot va otlashgan so'zlarda son kategoriyasi, jumladan, ko'plik shakli nutqiy vaziyatlarda undov va modal so'zlar kabi o'z grammatik ma'nosidan tashqari ijobiy va salbiy baho munosabatlarini ifodalashga xizmat qilishi xususidagi ilmiy xulosalar va materiallaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-202004165-raqamli "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" nomli amaliy loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-noyabrdagi 04/1-3116-son ma'lumotnomasi). Natijada, elektron platforma dramalar tilidagi frazeologik elementlar, lingvokulturologiya va lingvostilistikaga oid terminlar va ularning izohlari bilan boyitilgan.

Sharof Boshbekov dramalarida lisoniy vositalarning badiiy matnlardagi yashirin pragmatik imkoniyatlari, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotga nutqiy vaziyat, nutqiy sharoitning ta'siri kabi ekstralingvistik omillarga oid xulosalaridan O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasida bajarilgan "O'zbek raqs san'ati terminologiyasi" mavzusidagi PZ-20170930188-raqali tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 24-sentyabrdagi 01-04-08/342-son ma'lumotnomasi). Natijada dramalarning lingvistik, sotsial tadqiqi o'zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi bir qator zamonaviy sohalarini rivojlantirishga doir xulosalarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

dramalarda grammatik ma'noning nutqiy voqelanishida lisoniy vositalarning qahramon ruhiy holati, voqelikka munosabati, nutqiy vaziyat, zamon va makon ta'sirida so'zlovchining o'z ichki munosabatlarini ifodalovchi morfologik va sintaktik vositalar xususidagi natijalardan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida bajarilgan "Xoreografiya san'ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirish" mavzusidagi S-2020003161-raqamli tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan. (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 24-sentabrdagi 01-04-08/343-son ma'lumotnomasi) Natijada, lisoniy vositalarning pragmatik imkoniyatlari, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotga nutqiy vaziyat, nutqiy sharoitning ta'siri, verbal va noverbal vositalarning pragmatik imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab

chiqish, tayyorlangan glossariyni boyitishga erishilgan.

Sharof Boshbekov asarlarida sodda gaplar, kiritmalardan, zarur o‘rinlarda sheva elementlaridan unumli foydalanish o‘zaro muloqotning samaradorligini ta‘minlashi, so‘zlar, umuman, matn tili ijtimoiy jihatdan dramalar matniga moslashishi xususidagi natijalaridan O‘zbekiston teleradiokompaniyasi “Yoshlar” telekanalining “Yoshlar bilan”, “Madaniy hayot”, “Asliyat” kabi ko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston teleradiokompaniyasi “Yoshlar” telekanalining 2024-yil 08-oktabrdagi 14-02-171-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmun-mohiyati mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan. **Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obekt va predmeti tavsiflangan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Sharof Boshbekov dramalarida nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi” deb nomlangan birinchi bobida Sharof Boshbekov dramalari tilining lisoniy imkoniyatlari, grammatik o‘ziga xosligi hamda ularning sotsial xoslanish jihatlari yoritilgan. Badiiy adabiyotning o‘ziga xos va mos turi hisoblangan drama monologlari va dialoglari asosida qurilganligi bilan roman, qissa, hikoya va lirik turga mansub boshqa asarlardan tubdan farq qilishi, dramatik asar personajlari nutqi boshqa adabiy turga mansub asar qahramonlari nutqiga nisbatan dinamikligi bilan ajralib turishi, ayni shu jihat, dramatik asar tilini lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganishning dolzarbligini ta‘minlanish tadqiqot ishida ochib berilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli “Dramatik matnlarda lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishi masalasi” deb nomlanadi. Matnning pragmatik imkoniyatlarini bilish, o‘z navbatidagi boshqa mundarijadagi pragmatikani, ya‘ni axborot yoki xabar, darak, muloqot pragmatikasini yuzaga keltiradi. Mazkur yo‘nalishda, birinchidan tadqiq obekti matn bo‘lib, til birliklarining matnda qo‘llanishida hosil bo‘ladigan ma‘no xususiyatlari tahlil qilinadi. Albatta, bu matn pragmatik xususiyatlari va alohida lug‘aviy birliklar pragmatik imkoniyatlarning bir xil talqin qilinishiga olib kelmasligi kerak. Lekin har ikkala holatda ham tahlil metodlari

umumiy bo‘lishi mumkin. Pragmatikaga oid tadqiqotlarda asosiy tahlil birligi to‘liq shakllangan matn yoki boshqa turdagi nutqiy, diskursiv tuzilmalar bo‘ladi. Zero, lisoniy birliklarning pragmatik imkoniyatlari faqat ularning matn, diskurs sharoitida faollashuvda namoyon bo‘ladi. Pragmatika tushunchasi, odatda, ta’sir ko‘rsatish imkoniyati bilan bog‘liqlik holda qarashli muloqot sharoitida, holatida yuzaga keladigan mazmun-mohiyat orqali anglashiladi. Shunga binoan, pragmatika, til va uning alohida birliklari, nutqiy tuzilmalarining adresatga, tinglovchiga ta’sir o‘tkazish xususiyati sifatini talqin qilish maqsadga muvofiq. Dramaturg Sharof Boshbekovning drama janriga oid asarlari matnini lisoniy imkoniyatlarini tahlil qilish orqali muallifning o‘quvchiga ta’sir kuchini aniqlab olish imkoni paydo bo‘ladi. Asardagi nutqiy aktlar tahlili qahramonlarning so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan xususiyatlarini, uning insonga ko‘z ilg‘amas darajadagi ta’sirini namoyon qiladi. Mazkur zamonaviy tahlil yo‘li orqali asarlarning badiiy qimmatini, lisoniy vositalarning keng imkoniyatlarini ham teranroq anglash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Inson tafakkuri, hayot tarzi, kelajak umidlari, hayotdan maqsadi mualliflar tomonidan adresat – o‘quvchi – tinglovchi – tomoshabinga turlicha talqinda yetkazib beriladi. Sharof Boshbekov o‘z dramalarida u bilan muloqotga kirishuvchiga – o‘quvchiga biroz kinoya, biroz hazil aralash aytmoqchi, anglatmoqchi bo‘lganlarini ifodalab beraveradi: *Qishloq. Oddiy, kamtarona hovli. To‘g‘rida bir necha ustunli peshayvon, o‘ngda pastakkina ko‘cha eshigi, oldinroqda yog‘och karavot. Sahnadagi har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo‘yalgan, yarmining rangi o‘chib ketgan; yog‘och karavotning bitta oyog‘i yo‘q, o‘rniga g‘isht terib qo‘yilgan; ko‘rpa- yostiqaqqa yamoq tushgan; piyolalarning labi uchgan yoki **chegalangan**, choynakning jo‘mragiga tunuka kiygazilgan va hokazo. Peshayvon ustuniga Qo‘chqor arqon bilan **chandib tashlangan**, ust-boshi, aft-angoriga qarab bo‘lmaydi. Shu ko‘yi uxlab qolgan bo‘lsa kerak, avval sekin qimirlab qo‘yadi, so‘ng ko‘zini ochmay esnaydi. Oyoq-qo‘lining o‘ziga bo‘ysunmayotganiga hayron bo‘lib, bir-ikki chiranib ko‘radi.* (Sharof Boshbekov "Temir xotin" asari). Matn drama janriga mansubligidan kelib chiqib, muallif o‘quvchidan tashqari, tomoshabin kuzatuvchini ham, dramaturgni ham esdan chiqarmaydi, o‘quvchi o‘qib, o‘ziga kerakli taassurotni olaveradi, tomoshabinni ishontirish uchun dramaturg va uni ijro etuvchilar ham teran, aniq va tiniq anglashlariga imkon beradigan ifoda zarurligini diqqat markazida ushlab turadi. Asar qahramonining nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki bor bo‘lgan ichki olami bilan ham ko‘z oldingizda yorqin namoyon bo‘ladi, gavdalantira oladi. Bu holatni o‘qiyotgan oddiy roman, qissa yoki badiiy asardagi matndan ancha farq qilishi aniqdir. Muallif matn orqali adresatga asar qahramoniga qo‘shib uning atrofidagi olmani ham tilning ifoda imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib yorqin tasvirlab bera olgan.

Bobning ikkinchi fasli "Sharof Boshbekov asarlarida lisoniy birliklarning pragmatik xususiyatlari" deb nomlanadi.

Monologik va diologik nutqdan farqli ravishda remarka tarixiy drammatik asarlar nutqining shaklanishi jarayonida paydo bo‘lgan qism sifatida e’tirof etiladi. Chunki an’anaviy drammatik asarlaning nutqida remarkalar bo‘lmagan. O‘rta asrlarda g‘arbda dramaturgiya ancha rivojlangan. Dramalar asosan, sahnada ijro

etish uchun yozilgan. Shuning uchun dramaturglar, o'zlari ham aktyor yoki rejissyor vazifasini bajargan. Bu esa sahnaning o'zida turib aktyorlarga ko'rsatma berib turishga sabab bo'lgan. Masalan, Shakspir o'zi sahna asarlari yozgan, ham sahnada rol ijro etgan, aktyorlarni sahnada turib boshqargan.

Turli tasniflar tahlili shuni ko'rsatadiki, remarkalar dramatik asarlarda yordamchi birlik bo'lib xizmat qilibgina qolmay, balki dramatik matnning ajralmas qismi sifatida mustaqil matn ko'rinishidagi muallif maqsadini ifodalovchi birlik ham sanaladi. Shu jihatdan, remarkalarni filologik tadqiqotlarning an'anaviy obekti sifatida baholash mumkin bo'ladi. *Masalan: "Temir xotin" asarida "Dasayev" yozuv tushirilgan futbolka kiyib yurgan "Suvon chala mulla" obrazini olaylik. Muallif bu haqda o'zining asarida umuman ma'lumot bermagan, lekin ssenariy yozish va sahnalashtirish jarayonida mualliflarning o'zgacha yondoshuvi ya'ni remarkasi bilan shunday vaziyatlar yaratilgan va shu orqali "Suvon chala mulla" hamda haqiqiy nikoh o'qishga ruxsat berilgan mullalarning sifatlari, xususiyatlari, mohiyati kinoyali, kulgili holatda ochib berilgan.*

Sharof Boshbekov dramalarida qo'llangan lisoniy birliklarni lingvistik pragmatikaning implikativ (yashirin) mazmun turlaridan biri bo'lgan tagma'no sifatida talqin etish mumkin. Yozuvchi asarlarida kinoya ko'proq qahramon tilidan berilgan. Bunda subekt nutqiy muloqot vaziyatida, asosan, balandroq ijtimoiy mavqeda turadi, nutqiy faoliyat davomida uning intellektual va emotsional ustunligi ayon bo'ladi. Ko'rinadiki, kinoya subekti nutqidagi muloqot va etnik qoidalarga rioya qilgan holda til tizimining ifoda vositalaridan foydalana olish adibning mahoratiga bog'liq.

Sharof Boshbekov ijodida "Temir xotin" dramasi alohida ajralib turadi. Dramada o'zbek ayollarining qora mehnati, erta-yu kech dalada "paxta ekspluatatsiyasi"da bo'lganliklari, ko'p farzandlilik, ostona hatlab ko'chaga chiqmaganliklari va hayotda ularni "temir xotin" darajasiga olib chiqilgan. Unda "Alomat-1" ramziy o'zbek ayoli qahramon qilib olingan hamda haqiqiy o'zbek ayolining mehnatini ma'lum muddatda bajarishi evaziga kuyib, yonib ketishi berilgan. Kinoyaning asosiy xususiyatlaridan bir – voqea-hodisani bo'rttirib ko'rsatishdir. Chunonchi:

*ALOMAT. Sizning ham ba'zan biror joyingiz ishlamay qoladimi?*

*QO'CHQOR. Masalan, qayerim?*

*ALOMAT (yelka qisib). Endi-da..*

*QO'CHQOR. Issiq jon – kasal-pasal bo'p turamiz, lekin hamma joyim ishlaydi...*

*QO'CHQOR. Labbay? U nima deganingiz, taqsir? Nima, xotin moshinani pokrishkasimi, yangilaydigan!*

*SUVON. Ha endi, gapi-da, mulla Qo'chqor, gapi...*

*QO'CHQOR. Hozir, taqsir... (Choyni olib kelib.) Qani dasturxonga qarab o'tiring... (Kerilibroq.) Buyuraymi, "jiz-biz" qivorsin?*

*SUVON. Endi-i, mulla Qo'chqor, taom yeb yurgan joyi-miz. Xudo xohlasa, hali ko'-o'p kelamiz...*

*QO'CHQOR. Iye! Bu endi, hali ko'-o'p uylanisiz, deganingiz-mi, taqsir?*

Ushbu asarni adibning ijodidagi kinoyaviy, satirik uslubning eng yorqin namunasi sifatida baholash mumkin.

Ijodkor dramalarida o‘z qahramonlarining fe‘l-atvoridagi kamchiliklarni, ma‘naviy-axloqiy saviyasi qashshoqligini, ayni bir vaqtda ularning ruhiy holatini ochib berish uchun leksik birliklar sifatida voqelanadigan vulgarizmlardan mohirona foydalanadi. Ular nutqda salbiy munosabatlarni “kuchli” yoki “kuchsiz” darajada ifodalash orqali pragmatik ma‘no kasb etadi. Ma‘lumki, “kuchli” shaklda ifodalanuvchi leksik birliklarga haqorat va qarg‘ish vulgarizmlarini kiritamiz. Sharof Boshbekov dramalarida ham qarg‘ish bilan aloqador so‘zlar (padaringga la‘nat) bilan bir qatorda ko‘plab “qolip” holiga tushib qolgan iboralar uchraydi. Masalan: *Qirilibgina ket iloyim! “G‘ing” deb ko‘r-chi, nima qilar ekanman! Nima deding? Boshimga nimani nima qilasan? Ha, og‘izginangdan qoning kelsin, sen echkemarning! Ko‘zingni o‘yib olaymi hozir?! Kimni sazoyi qilmoqchisan, qari kalamush?! Kimni deyapman!.* Qo‘chqorning sodda, go‘l ekanligini mikrosxema o‘rnatish orqali bilgan Alomat doimo unga dardu-hasratini ochib tashlashini, aytib-aytib yig‘lashini, shu yo‘l orqali ichidagi g‘amlarini chiqarib tashlashini aytadi, “Temir xotin” Qo‘chqorni tergab, o‘zgalar singari bo‘lishga undaydi. Biroq Qo‘chqor dardini aytmasligi, aytolmasligini o‘ylab alamini ichish (aroq)dan olishi ortidan muammolarga o‘ralashib yuradi. Ammo maqsadiga erisholmagan, orzulari puchga chiqqan va mehnatning og‘irligidan aziyat chekkan Qo‘chqor oxiri yoriladi va yig‘laydi. Ayollar mehnatining og‘irligini ko‘tara olmagan va Qo‘chqorning dardli gaplarini ko‘tara olmagan Alomat halok bo‘ladi. Ushbu holatlar personajning xarakterini yoritish bilan birga, shu vaziyatdagi ruhiy holatini ham yorqin ifoda etadi.

Ma‘lumki, “yuklamalar ayrim so‘z yoki gapga turli ma‘no ottenkasi berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlardir”<sup>17</sup>. “Yuklama gap mazmuniga har xil qo‘shimcha ma‘no kiritish, ayrim gap bo‘laklarini kuchaytirish uchun xizmat qiladi”<sup>18</sup>. “Yuklamalar yordamchi so‘zlar turkumiga taalluqli bo‘lib, ayrim so‘z yoki gap bo‘laklaridan biri bilan ishlatiladi va fikrning ba‘zi modallik xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi”<sup>19</sup>. Keltirilgan ta‘riflardan ma‘lum bo‘ladiki, ayrim so‘z yoki gapga qo‘shimcha ma‘no berish uchun xizmat qiladigan lisoniy vositalar – bu yuklamalardir.

Erkalash, suyush, ardoqlash kabi ma‘no nozikliklarini ifodalaydigan *-gina* (*-kina*) qo‘shimchasini olgan so‘z shakllari quyidagi parchada alohida ta‘kid olib, pragmatik qiymat kasb etgan:

*-Bozortoy!...Ho‘, Bozortoy! Bir qarab yubor, jo‘ra, ikki og‘izgina gapim bor!...Bozortoy, jon do‘stim, bir qaragin!...Senga aytmasam kinga aytaman, Bozortoy!...*

*-Odamlardayam insof qolmabdi, o‘lib qoladiyam deyishmaydiya!...Bunaqaligini bilganimda o‘zim yechib ketardim...Voy, sho‘rginam qursina!...Belingiz ham qotib qolgandir, dadasi?*

*-gina* qo‘shimchasining personaj nutqida takror qo‘llanishi erkalash ma‘nosining, ijobiy munosabatning daraja sayin ortib borishini ko‘rsatadi. Bu esa personaj ruhiy holatining yorqin ifodasiga xizmat qiladi. *Og‘izgina* so‘zida ta‘kid va erkalash ma‘nolari uyg‘unlashgan bo‘lsa, *sho‘rginam* so‘zida erkalash ma‘nosi

<sup>17</sup> Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент, 1980. – Б. 7-24.

<sup>18</sup> Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – Б. 180.

<sup>19</sup> Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент, 1980. – Б. 26-27.

yanada kuchaygan. Natijada, personajning o'sha ruhiy holatdagi qiyofasi yaqqol aks etadi. Qahramonning jest va mimikalari ushbu nutqni to'ldirib, poetik kuchli hissiy ta'sirni yuzaga keltirgan. Umuman, ushbu dramada she'rga xos lirizm, ohangdoshlik, ayricha pafos mujassam. Unda qadriyat, insoniylik kuylanganidek taassurot qoldiradi.

Bobning uchinchi fasli "Sharof Boshbekov dramalarida lisoniy imkoniyatlarning sotsiopragmatik tavsifi" deb nomlangan.

Nutqiy vaziyat so'zlovchining so'zlarni tanlab nutq so'zlashini taqozo qiladi. Masalan, Binafsha otasining jarohatini bog'lash jarayonida o'zaro muloqot jarayoni bo'lsa-da, Akmal borligi uchun nutqiy sharoitni o'zgartirishga, hamma voqeani to'liq aytib bermaslik uchun, ijtimoiy holatdan kelib chiqib gapiradi, ammo nutqiy sharoit, vaziyat talablariga mos kelmay qoladi:

*-Nima bo'ldi o'zi?-so'radi Binafsha xuddi o'zining joni og'riyotganday aftini tirishtirib.*

*-A-a...-deb beparvo qo'l siltadi Shavkat.- qo'yaver, "proizvodstvennaya travma"...*

*-Ishinglar shunaqa xavflimi?-so'radi Binafsha ko'zlarini pikipiratib.*

*-O'o', xavfli bo'lgandaki!-dedi Shavkat g'ururlanib. Masalan, egasi kep qolishi mumkin...*

Ma'lum bo'ldiki, so'zlovchi – adresant, ya'ni Shavkat adresatga qizi Binafshaga yolg'on xabarni yetkazish jarayonida Akmalning mayus turganiga ko'zi tushib, so'zlovchi va nutq vaziyati uchun g'ayriodatiy holat sodir bo'ldi. Demak, muloqot sharti, mazmuni va qiymati nutqiy vaziyatga bevosita aloqador sanaladi.

Dramalarda nutqning turli shakllaridan foydalaniladi. Ayniqsa, ichki monologlardan. Sharof Boshbekov ham o'z dramalarida asar qahramonlari ruhiyatini ochish uchun shunday monologlarga ham o'rin ajratadi: *Yetimlik nima - mendan so'rayver. Ko'cha-ko'yda qandaydir bolaga ko'zim tushsa, yetim o'tgan bolaligim esimga tushib, g'alati bo'pketaman... Ota-onam ko'cha bo'ldi, do'stim — ko'cha, dushmanim — ko'cha... Xullas, meni ko'cha tarbiyaladi, o'qitdi, odam qildi... Mana endi sen borsan. Men sen tufayli ajaldan qutulib qoldim, bo'lmasa Qodir bilan Hotamga o'xshab... (Sharof Boshbekov, Falakning gardishi asari).* Xabar, tafsilot, kechinma shaklidagi mazkur nutqiy akt so'zlovchining insoniylik qiyofasini ochib beradi. Bu Shavkatning beg'ubor, mehnatkash, jafokash inson ekanligini anglatib turibdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Sharof Boshbekov dramalarida ba'zi lisoniy birliklar va noverbal vositalarning sotsial xoslanishi" deb nomlangan. Bobning birinchi fasli "Sharof Boshbekov dramalari tilining grammatik jihatdan o'ziga xosligi" deb nomlangan bo'lib, avvalo, Sharof Boshbekovning tildan foydalanishdagi eng muhim o'ziga xos jihati bu – uning sodda gap turlaridan samarali foydalanish mahoratida ekanini ta'kidlash joiz. U sodda gaplardan unumli va maqsadli foydalana oladi:

*Sharofat. Ha? Voy, o'lay ...*

*Qo'chqor. Haligi... Yaxshimisiz, kelin?*

*Sharofat. Rahmat...*

*Qo'chqor. Bolalar yaxshimi?*

*Sharofat. Ha, yurishibdi...*

Adabiy tilda, badiiy asarlar matnida asosan, “do‘st” so‘zi qo‘llaniladi, biroq muallif bu so‘zning “jo‘ra” sinonimini qo‘llamoqdaki, bu ham alohida uslubiy yuk tashimoqda.

Sharof Boshbekov dramalarida sodda, to‘liqsiz va bir bosh bo‘lakli gaplardan, kiritmalardan, zarur o‘rinlarda, sheva elementlaridan unumli foydalana olgani sababli, o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga erishgan.

Bobning ikkinchi fasli “Dramalarda noverbal vositalardan foydalanishning sotsial xususiyati” deb nomlanib, unda Sharof Boshbekov dramalarida aks etgan muloqotning noverbal vositalari jamiyatda turg‘unlashgan meyorlar nuqtai nazaridan tavsiflangan.

Sh.Boshbekovning “Temir xotin” va “Taqdir eshigi” dramalarida so‘z bilan ifodalanmagan, noverbal vositalar asosida muloqotga kirishilgan o‘rinlar ko‘plab uchraydi:

1. *Qo‘chqor. (hayratda). Xotinmas-ekskavator! (O‘tiradi).*

2. *Olimjon. (zerikib). Qo‘chqor aka, televizor-pelevizor ham olib qo‘ymagansiz-a?*

3. *Qo‘chqor. Televizorning nima keragi bor? Shunisi yaxshi, ertaroq yotiladi. (Dasturxonga fotiha qilib.) Alomatxon, joy solinganmi?*

4. *Alomat. (ish bilan bo‘lib). Ha solib qo‘rganman. Sukut.*

5. *Olimjon. (turib.) Qorin to‘ydi-g‘am ketdi, rahmat. Endi bir oz ishlasak ham bo‘ladi. (Ketadi.)*

Bobning uchinchi fasli “Sharof Boshbekov asarlarida noverbal vositalarning pragmatik tavsifi” deb nomlanib, ushbu faslda noverbal vositalar real nutq vaziyatida ega bo‘lgan pragmatik ahamiyat nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Zero, ruhshunoslar ta’kidlashicha, o‘zaro muloqot jarayonining 60-80% noverbal vositalar hisobiga va faqatgina 20-40% axborot verbal vositalar yordamida amalga oshadi. Ushbu ma’lumotlar insonlar bir-birlarini o‘zaro tushunishlari uchun noverbal vositalarning ahamiyati ustida bosh qotirishga, inson jestlari va mimikasi ma’nolariga alohida e’tibor qaratishga undaydi.

O‘zbek muloqot madaniyatida ham imo-ishoralardan vaziyatga ko‘ra, faol foydalaniladi. Ko‘pincha, jamoat joylarida, ovoz eshitilmaydigan darajada, yoki shovqin ko‘p bo‘lgan o‘rinlarda, yo bo‘lmasa, gapirish taqiqlangan vaziyatlarda noverbal vositalardan unumli foydalanish mumkin. Shu ma’noda badiiy matnlar, xususan, Sharof Boshbekov dramalari matnida noverbal vositalarining qo‘llanilganligi bilan bog‘liq holatlar tadqiqi ham lisoniy, ham nolisoniy imkoniyatlarni o‘rganishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Sharof Boshbekov dramalarida grammatik ma’noning nutqiy voqelanishida pragmatik omillar” deb nomlangan bo‘lib, bobning birinchi – “Dramalarda grammatik vositalarning nutqiy voqelanishi” faslida nutqiy ixtisoslashuvga sabab bo‘luvchi dramalarda grammatik vositalarning pragmatik imkoniyatlaridan foydalanish mahorati ko‘rsatib berilgan. Masalan, sanalmaydigan, birlik ma’nosini ifodalovchi otlarga qo‘shilgan grammatik ko‘plik ham ba’zan ko‘plik, ba’zan yuqori baho berish, hurmat ko‘rsatishni anglatishga xizmat qiladi: «*Tar-tar-tar*» qilib ko‘chadan traktor o‘tgani qayoqda-yu, qo‘ng‘iroqday ovozi bilan **ko‘ngillarni** entiktirib, qizlar o‘tgani qayoqda! Ha-a... Shunaqa de? U... qanaqa bo‘ladi o‘zi, **xotinlarimizni** bir balo qilishadimi yo biz erkaklarni ..... (Sharof Boshbekov, *Temir xotin asari*). Matn mazmunidan ko‘rinib turibdiki, *ko‘ngil*

soʻzining morfologik shakllari grammatik koʻplikni bildirmayapti, koʻngillar haqida gap bormoqda. *Xotinlar* ham aslida *koʻngillar* kabi boshqa maʼno anglatmayapti. Aslida, *xotin* va *koʻngil* tarzida ishlatish ham nutqqa putur yetkazmaydi, *-lar* affiksi bu oʻrinda ham sotsiopragmatik maʼno ifodalashga, soʻzlovchining ichki tuygʻulari, olam va odamga munosabati doirasida ifodalanmoqda.

Mustaqil soʻz turkumlarining deyarli hammasiga turli vaziyatlarda qoʻshilib keladigan *-lar* affiksi grammatik maʼnoning nutqiy voqelanishida eng faol qoʻllanuvchi morfologik vositadir. Dramaturg Sharof Boshbekov asarlari matnida u sof grammatik koʻplikdan tashqari umumiylik, jamlik, hurmat, aloqadorlik, birgalik, yaqinlik, kuchaytirish, mavhumlik, taxmin va eng asosiysi, nutqiy vaziyatga koʻra, hurmatsizlik, mensimaslik, manmanlik kabi bir qator uslubiy maʼnolarni ham ifodalashga xizmat qilgan.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “Sharof Boshbekov asarlarida yordamchi soʻz turkumlarining pragmatik voqelanishi” deb nomlangan boʻlib, unda Sharof Boshbekov dramalarida yordamchi soʻz turkumlarining pragmatik imkoniyatlaridan foydalanishning oʻziga xos tomonlari oʻrganilgan. Masalan, yuklamalarning bunday imkoniyatlari quyidagi misollarda yaqqol koʻrinadi:

